

## **XOR SAN'ATI GENEZISI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI**

**Mirzayev Anvar Furqat o'g'li**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Vokal” kafedrası o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada xor san'atining vujudga kelishi va uning jamiyat taraqqiyoti yo'lida tutgan o'rni borasida so'z boradi. Shuningdek, jamoa bo'lib faoliyat yuritishda xor san'atining psixo-emotsional ta'siri yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** xor san'ati, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, jamoaviylik, taraqqiyot, san'at, ijro mahorati*

## **ГЕНЕЗИС ХОРОВОГО ИСКУССТВА И ЕГО МЕСТО В ОБЩЕСТВЕ**

**Мирзаев Анвар Фуркат угли**

Преподаватель кафедры Вокал

Государственного института культуры и искусств Узбекистана

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья посвящена возникновению хорового искусства и его роли в развитии общества. Также выделен психоэмоциональный эффект хорового искусства при работе в коллективе.*

***Ключевые слова:** хоровое искусство, групповое пение, коллективная работа, развитие, искусство, исполнительское мастерство.*

## **GENESIS OF CHOIR ART AND ITS PLACE IN SOCIETY**

**Mirzaev Anvar Furkat ugli**

Teacher of the Department Vocal

The Uzbekistan state institute of arts and culture

### **ABSTRACT**

*This article is about the emergence of choral art and its role in the development of society. Also, the psycho-emotional effect of choral art in working as a team is highlighted.*

***Key words:** choral art, group singing, teamwork, development, art, performance skills*

### **KIRISH**

Insonning dunyoga kelishi asl mo'jizadir. Uning kamoloti esa haqiqiy saodat bo'lib, manashu soadatga erishish uchun insonning moddiy va ma'naviy jihatdan

kamolotga yetmog‘i lozimdir. Har bir inson bu ehtiyojlarni qondirish uchun jamiyatga kirib bo‘rishi, jamiyat bilan o‘zini bir tanu-jondek his qilishi lozim. Sababi, inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib, boshqa insonlarsiz soadatga erisha olmaydi. Jamiyatning rivojlanishi ham o‘z navbatida har bir shaxsning rivojlanganligi, aqlan sog‘lom, jismonan baquvat va ruhan barkamol bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Mana shunday bir jamiyat shakllantirish har bir davlatning, mamlakatning orzu va istagidir. Zero har qanday mamlakat ham fuqarolarini baxtli va soadatli bo‘lishini eng oliy maqsadi deb biladi.

Insonlar baxtli va soadatli yashashlari uchun o‘zaro ahil va inoq yashashlari lozimdir. Buni shakllantirishida pedagoglarimiz liderlar bilan bir qatorda o‘z ishlarining ustasi bo‘lgan jamoada ishlay oladigan qobilyatli shaxslarni ham shakllantirishi lozim. Ayniqsa hozirgi davrda barcha insonlar mashhur bo‘lishga intilmoqda, yoshlarimiz esa tez tanilishni, mashhur bo‘lishni istashfdi.

Hozirgi kunda jamoada yaxshi ishlash qobilyati bor shaxslarga avvalgidan ham ko‘ra koproq mehnat bozorda talab mavjud. Buning sababi yosh avvloodning asta sekin jamoa bo‘lib ishlash qobilyatlarini yo‘qolib boryatganligi ham bunga sababdir. Bu kabi holatlarni to‘laligicha oldini olalmasakda, bolalarimizga jamoa bo‘lib ishlashni orgatishimiz o‘ta muhim ekanligini unutmashimiz lozim bo‘ladi. Jamoa bilan ishlash hozirgi iqtisodiyotning ham asosiy negizidir. Yaponiya mamlakati iqtisodiy jihatdan o‘zini tezda tiklab olishining ham asosiy sabablari aynan jamoa bilan ishlash bo‘lganligi bugungi kundagi iqtisodiyot darsliklarimizda takror-takror beriladi[1].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yuqorida bayon qilib o‘tgan bir nechta sabablar bilan bir qatorda jamiyatmizning kelajagi bor umid va ishonchi hisoblanmish bolalarni san‘at turlariga qiziqtirish orqali ularni jamoa bilan ishlay oladi shaxslarga aylantirish orqali har bir o‘quvchilarni jamiyatda o‘z orni topa oladigan qilib tarbiyalashdir. Bolalar kichikligidanoq jamiyatga singdirilmas ekan ular albatta kelajakda qiynaladilar. Agar bunday bolalar soni oshsa mamlakatda har tomonlama yetuk bo‘lgan kadrlarga ehtiyoj oshib borib, iqtisodiy hamda siyosiy havfga olib keladi.

Xor san‘ati o‘ta nozik san‘at turlaridan bolib, bolaning kichikligidanoq egalagan liderlik hamda o‘z fikrini jamiyatda emin-erkin ifoda eta oladigan shaxslar paydo bo‘lishidir. Har birimiz jamiyatga boqar ekanmiz, bazan kamsitilgan bolalarni ko‘ramiz. bunday bolalar o‘z fikr-mulohazalarini erkin aytishdan qo‘rqanlari boisdan ham sahnaga yolg‘iz chiqa olmaydilar. Shunday bolalar xorga qatnashsalar o‘zlaridagi bu qorquvni yenga olishlari hamda ular jamiyatning bir bo‘lagi ekanliklarni tushunush imkoniyatini beradi. Jamoa bo‘lib kuylashni kichik

yoshligidanoq o‘rgangan bola yangi do‘stalariga ham tezda kirishib ketadi. Borgan joyida shaxsiy fikrini aytishi esa hozirgi taraqqiyotning asosi hisoblandi.

Bundan tashqari xor san’atida bolalarning ovozlari hisobga olish, ularni qiynamaslik, imkoniyatidan ortiqcha talab qo‘ymaslik, ularga iloji boricha bir birini eshitishni o‘rgatish, bu orqali esa ortalarida o‘zaro hurmatni shakllantirishga olib keladi. Xor san’atiga endigina qadam qo‘yayotgan bolalarni ayni payitda tog‘ri metodlar bilan bu san’atni ularga o‘rgatish, ovozlarni tog‘ri shakllantirish, ichki “Men”likni sindirmaslik, musiqa savodini keng ommaga yoyish, musiqani tushuna olish orqali klassik musiqani yanada ommalashtirish orqali jamiyatning madaniyatini yana bir pog‘ona yuqoriga ko‘tarish soha vakillarining eng dolzarb vazifasidir. Sababi, san’at bilan uyg‘un bo‘lgan mamlakat taraqqiy etadi.

Bolalarni tog‘ri metodlar bilan istedotlarni ochishiga ko‘maklashish, ularning musiqiy savodxonligini oshirish, kuylay olish, sahna madaniyati, sahnadan qo‘rqmaslik, jamoa bilan kuylash qobiliyatini shakllantirish va ovoz ustida ishlash malakalaridan yanada kengroq foydalanishning imkoniyatlarini nazriy va amaliy jihatdan rivojlantirish har bir xor jamoasi pedagogininh asl maqsadi bo‘lishi kerak.

Ushbu maqsadlarga etishishda obyekt hamda predmetni o‘zaro uyg‘unlashtirish uchun quyidagi vazifalarni ustuvor deb xisoblaymiz:

1. Musiqa madaniyati to‘garaklarini tashkil etgan faoliyatlarga umumiy izoh berib chiqish.
2. Musiqa madaniyati to‘garaklarining asosiy faoliyatlaridan biri jamoa bolib qo‘shiq kuylashni o‘quv mashg‘ulotlariga yanada kengroq tadbiiq etish imkoniyatlariga tasnif berish.
3. Musiqa to‘garaklarda jamoa bolib qo‘shiq kuylashning shakl va usullarini ishlab chiqish.

Ushbu kabi vazifalarni amaliyotga tadbiiq etishda, mutafakkirlarimizning musiqa san’atini o‘qitilishining tarbiyaviy ahamiyati borasidagi fikrlari, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dastur” milliy musiqiy qadriylarini shakllantirish to‘g‘risida, xalq ta’limning musiqa, estetik tarbiya sohasida chiqarilgan farmonlari va hujjatlari tashkil etadi.

## **XULOSA**

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilgan holda, xor nafaqat insonlarning ichki kechinmalari, musiqiy savodxonligini oshirish, jamiyatga yetuk shaxslarni yetishtirish uchun ham muhimligi, bunda jamoa bo‘lib kuylashning beqiyos o‘rni borligi hamda xor darsining samaradorligini oshirishda eng birinchilardan bo‘lib jamoa bo‘lib kuylash ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek o‘quvchilar toza ovoz hosil qilishni tez o‘zlashtirishlarida xor sinfi imkoniyatlaridan keng foydalanish kerakligi,

hamda jamoa bo'lib qo'shiq kuylanganda tortinchoq, o'zlashtirishi past bo'lgan bolalarning ham xor darsiga qiziqishi oshish hamda ularning o'ziga xos iqtidorlarini kashf qila olishimiz imkonini berishiga ishonamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Rajabiy, A. X. (2023). O 'ZBEK OPERALARI VA ULARNING YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA O 'ZIGA XOS AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 132-137.
2. Sh Roziyev Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyat va san'at nashriyoti 1987 yil. 7-9betlar.
3. I.b.Matyakubov Xor va Xorshunoslik Toshkent 2019 yil Fan va texnologiya nashriyoti. 10-20 betlar.)
4. Насритдинова, М. (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOLAJAK MUSIQA TA'LIMI OQITUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(4), 241-246.
5. Nasritdinova, M. N. (2023). INNOVATIVE PEDAGOGICAL MODEL OF DEVELOPMENT OF ARTISTIC-CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS ON THE BASIS OF ARTPEDAGOGICAL APPROACH. *Science and innovation*, 2(B4), 711-716.
6. Насритдинова, М. Н. (2022). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСЦЕЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С ПАТОЛОГИЕЙ, СВЯЗАННЫХ С ГИПОКСИИ, ПОСРЕДСТВОМ ИСКУССТВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 385-393.